

## **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINI JIHOZLASH: MUAMMO VA YECHIM**

**Aytbaeva Muxabbat Qidirbaevna**

Qoraqolpog‘iston Respublikasi Qo‘ng‘irot tumani 8-sonli DMTTdirektori

### **Annotatsiya**

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarini jihozlashda yuzaga kelayotgan muammolarni yechimmini yechish bo‘yicha ilmiy va nazariy takliflar, tavsiyalar berildi. Shuningdek ushbu taklif va tavsiyalar asosida amaliy xulosalarga kelindi.

**Kalit so‘zlar:** moddiy-texnika baza, mini-hududlarga - “faollik hududlari”, pedagogik texnologiya, o‘yinlar, o‘yinchoqlar, mebel, jihozlar, texnik vositalar

## **EQUIPMENT OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS: PROBLEM AND SOLUTION**

### **Abstract**

In the article, scientific and theoretical suggestions and recommendations were given to solve the problems arising in the equipping of preschool educational organizations. Practical conclusions were also drawn based on these suggestions and recommendations.

**Keywords:** material and technical base, mini-areas - "areas of activity", pedagogical technology, games, toys, furniture, equipment, technical means.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, bolalarning maktabgacha ta’lim tizimiga yanada kengroq qamrab olinishini ta’minlash hamda maktabgacha ta’lim sohasidagi qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 apreldagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3651-son qarori hamda 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli qarori asosida davlat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish faoliyatini yanada rivojlantirish, ta’limning yuqori sifatini ta’minlash davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini yaratib berish uchun respublikamiz rahbariyati tomonidan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining moddiy texnik bazasini takomillashtirish va rivojlantirish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, O‘zbekiston Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi,

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2018 yil 7 martdagи k-6, 14, 58-son “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini o‘yinlar, o‘yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik vositalar bilan jihozlash me’yorlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qo‘shma qarorida nazarda tutilgan tartiblarda belgilangan me’yorlar asosida jihozlanishi va ushbu talablarda nazarda tutilgan zarur metodik hamda texnik vositalarga ega bo‘lishi zarur.

Albatta, sifatli ta’lim-tarbiya berish uchun ta’lim tashkiloti zaruriy jihozlargaga ega bo‘lishi zarur. Aks holda bunday ta’lim maskanlari faqatgina bolalarni vaqtinchalik ushlab turuvchi joyga aylanadi. Bu esa maktabgacha ta’lim xizmatlarining sifat darajasini pasayishiga olib keladi.

Bu borada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir guruh xonasining maydonini shartli ravishda quyidagi mini-hududlarga - “faollik hududlari”ga ajratish quyidagi tartibda amalga oshiriladi (stol, javon, taxmonchalar shaklida jihozlanishi mumkin):

- amaliyotda tajriba o‘tkazish;
- sensor rivojlanish;
- nutq o‘stirish, savod va o‘qishga tayyorlash va o‘rgatish;
- matematika;
- teatr va dramatizatsiya;
- voqeband o‘yin;
- stol usti o‘yinlari;
- ijodiy ustaxona va badiiy qo‘l mehnati;
- loyihalashtirish va qurish-yasash;
- badiiy adabiyot;
- jismoniy tarbiya;
- jonli tabiat va ekologiya burchagi;
- dam olish (holi qolish) hududi va boshqalar.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalarni qabul qilish xonasi, guruh xonalari, musiqa zali, yotoqxonalar, kompyuter xonalari, psixolog-logoped va ma’muriyat xonalari mebel, jihoz, o‘yinchoqlar, asbob, ko‘rgazmali hamda texnika vositalarining yo‘riqnomali saqlanishini ta’minlaydi.

Guruh xonasida – bolalar yoshiga mos bolalar shoirlari va yozuvchilari portreti va asarlari, o‘zbek xalq ertaklari, chet el shoirlari va yozuvchilari asarlari, turli xalq ertaklari, rivojlantiruvchi o‘yin va o‘yinchoqlar, tarbiyachi uchun maxsus jurnal, metodik adabiyotlar, axborot-ma’lumot yo‘nalishidagi adabiyotlar bo‘lishi kerak.

Maktabgacha ta’lim bo‘yicha qo‘srimcha materiallar – didaktik tarqatma material va kartochkalar, ko‘rgazmalar, turli yo‘nalishdagi mashg‘ulotlar uchun materiallar, yil davomida o‘tkaziladigan tadbir va tanlovlari, ishlanmalari va boshqalar.

Guruhdan bolalarning stoli, stuli, namoyish stoli, doska, magnit doskasi bo‘lishi zarur.

Bolalarning ta’lim olishi, o‘yin jarayonini tashkil etish, tajribalar o‘tkazishi, mustaqil faoliyatni tashkil qilishlari, kun davomida turli tashkiliy ishlar (ovqatlanish, mehnat, dam olishlari) uchun guruh xonasida yetarli joy bo‘lishi kerak.

Mashg‘ulot jarayonida ishlatiladigan ko‘rgazmali qurollar va jihozlari bolalar bemaoloy foydalanishlari uchun qulay joylashtirilishi lozim.

O‘yinchoq va rivojlantiruvchi o‘yinlar, ko‘rgazmali qurollar quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- Maktabgacha ta’limning zamonaviy pedagogik texnologiyalari va texnika vositalaridan jarayonida unumli foydalanishni tashkil etish lozim.

- Mavjud jihozlardan samarali foydalanish va ularni saqlash holatini ta’lim tashkilotining pedagogik va kuzatuv kengashlari majlisida har yili kamida bir marta atroficha muhokama qilish va samarali foydalanish bo‘yicha berilgan takliflarni inobatga olish kerak.

- Guruh xonalari jihozlaridan maqsadli foydalanish va ularning saqlanishini samarali tashkil etish yuzasidan tashkilot miqyosida ko‘rik-tanlovlardan tashkil etish zarur.

- Guruh xonasiga mas’ul shaxsning jihoz, anjom va o‘yinchoqlardan samarali foydalanish holati o‘rganilib, ijobiy natijalarga erishganlarni rag‘batlantirish masalasi ta’lim tashkilot rahbariyati tomonidan ko‘rib chiqilib, yil yakuni bo‘yicha moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish choralarini ko‘rish lozim.

- Turli sabablarga ko‘ra xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yib, mebel va jihozlarning ishlash muddatlarini qisqarishiga, qismlarini ishdan chiqishga, yaroqsiz holatga olib kelgan shaxslarga nisbatan o‘rnatilgan tartibda intizomiy choralar ko‘rish kerak.

- Guruh xonasidagi tarbiyachi bolalar stollari, stillari, javon va boshqa turdagilari jihozlarning qirilishi, chizilishi kabi holatlari va uning tozaligi uchun mas’ul shaxs va ta’lim tashkilotining rahbariyati shaxsan javobgar hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq quyidagilarni amalga oshirishi kerak.

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarning hayotini muhofaza qilish va sog‘lig‘ini mustahkamlashni pedagog va tibbiyot xodimlar hamkorlikda amalga oshiradi.

2. Maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’sischisi tarbiyalanuvchilarining hayotini muhofaza qilish va sog‘ligini mustahkamlashni tashkil etilishi uchun mas’ul hisoblanadi.

3. Bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qabul qilishda Oilaviy NMTT ta’sischisi tomonidan bolaning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni qanday tartibda olib kelishlari va olib ketishlarini respublikamiz qonun hujjalarda belgilangan talablar bilan tanishtirishadi.

4. Tarbiyalanuvchilarining hayotini muhofaza qilish maksadida maktabgacha ta’lim tashkilotida telefon apparatlari mavjud bo‘lgan joylarda, shuningdek barcha xodimlar kirishi va ko‘rishi mumkin bulgan joylardagi e’lonlar taxtasiga direktor, hamshira, yong‘in

xavfsizligi, favqulotda vaziyatlar, tez tibbiy yordam xizmatlari hamda ichki ishlar organlarining telefon raqamlari ko'rsatilgan ma'lumotlar osib qo'yiladi.

5. Maktabgacha ta'lim tashkilotining guruh tarbiyachisida tarbiyalanuvchilarning yashash manzili, shuningdek ularning ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bilan bog'lanish mumkin bo'lgan telefon raqamlari yoki boshka aloqa vositalari haqidagi ma'lumotlar bo'lishi zarur.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalanuvchilar havfsizligini ta'minlash hamda ular uchun zarur sharoitlarni yaratilishini nazorat qilish maqsadida videokuzatuv moslamalari o'rnatilishi maqsadga muvofiqdir.

Albatta biz yuqorida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini jihozlashda, mavjud muammolarga duch kelmoqdamizki, bularni albatta jamoatchilikning fikrlarini eshitgan holda davlatimizning bu sohada olib borayotgan islohotlari natijasida ijobiy tomonga yechimini yo'naltirishimiz lozim. Chunki holi ham respublikamizning ayrim hududlaridagi bog'chalar o'z jihozlarini kutib maktabgacha ta'lim va tarbiyani amalga oshirishdagi mavjud muammolarni hal qilinishini kutib yashamoqdalar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini jihozlashda quydagи xulosa va tavsiyalarga kelindi:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun o'yinlar, o'yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik vositalar bilan jihozlashda ishlab chiqaruvchilarning kafolatli sertifikatlarini amaliyatga joriy qilish lozim (*2 yoki 3 yilga mo'ljallangan*). *Chunki ayrim jihozlar bir yil o'tmasdan ma'nan eski holatga kelib qolmoqda*.

2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy texnik vositalarini ishlab chiqarishni har bir viloyatda tashkil qilsa maqsadaga muvofiq bo'ladi. Bu borada maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun ishlab chiqilayotgan moddiy texnika va jihozlarni davlat va xususiy sherik o'rtasida amalga oshirilsa ishning samarasi yanada oshadi.

3. MTTda moddiy texnikani ishlab chiqarishda xorijiy davlatlar tajribasini yanada ommalashtirish lozim. (*masalan J.Koreya, Yaponiya, Daniya, Rossiya Federatsiyasi*)

4. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga moddiy texnik vositalarini smetadan tashqari ham berish bo'yicha MTB vazirlikka takliflar bilan chiqish maqsadaga muvofiqdir.

5. Maktabgacha ta'lim tashkiloti Kuzatuv kengashlariga moddiy texnik bazani nazorat qilish vakolatini berish.

Xulosa shuki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni ta'lim-tarbiyasini jamiyatdagи mavqeyini kuchaytirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy texnik bazasini har doim yangilab turish lozim. Chunki bolalarga har doim yangilikka intiluvchan bo'ladi va ularning hissiyotni amalga oshirishda albatta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ko'mak berishi shart.

### **Foydalangan adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 apreldagi “Maktabgacha ta’lim tizimini yanada rag‘batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3651-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Maktabgacha ta’lim vazirligining 2019 yil 12-07-34/03-02-1/46-sonli qo‘shma qarori.
4. 2018 yil 7 martdagি O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta’lim Vazirligi O‘zbekiston Standartlashtirish, Metrologiya va Sertifikatlashtirish Agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarini o‘yinlar, o‘yinchoqlar, mebel, jihozlar va boshqa texnik vositalar bilan jihozlash me’yorlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi k-6, 14, 58-son qo‘shma qarori.